

## **QVANT jurnali yangi sonining taqdimoti**

Shu yilning 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Konferentsiyalar zalida mamlakatimizning buyuk aql sohiblari, yosh ixtirochilar, OAV vakillari hamda ilmiy-ommabop jurnal hamkorlarining uchrashuvi o'tkazildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi jurnali nominatsiyalarining g'oliblarini taqdirlash va innovatsion ixtiolar ko'rgazmasi taqdimotning uzviy qismi bo'ldi. Vazirlik startaplar va tadbirkorlarga o'z g'oyalari haqida e'lon qilish, tajribali biznes vakillariga esa, investitsiyalar uchun yangi loyihalarni topish imkonini beradi. Jurnal mualliflari, obunachilari va hamfikrlari orasida davlat idoralari, biznes vakillari, OTMlar, shuningdek ilm-fan va yangi texnologiyalarning harakatga keltiruvchi kuchiga qiziquvchi va uni tushunuvchi fuqarolar mavjudligi e'tiborga molik.



Diqqatga sazovor jihatni, ushbu tadbirda institutimizning "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasi professori O.Tursunov "Jahon ilmiy hamjamiyatida mamlakat obro'sini yuksaltirganligi uchun" nominatsiyasida g'olib bo'ldi. Tadbir so'ngida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vaziri o'rinnbosari Azimjon Nazarov barcha g'olib va sovrindorlarga esdalik sovg'alari hamda diplomlarni tantanali ravishda topshirdi.

Bu ham institutimizning respublika ilm-fan sohasidagi yana bir e'tiborli yutuqlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**